

ATMOSFERANING IFLOSLANISHI VA UNING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI

Mirzoyeva Istat Elmurodovna

BuxDu, Ekologiya va geografiya kafedrasida katta o'qituvchisi

Sobirova Dilorom Bobirjon qizi

BuxDU, Geografiya ta'lim yo'nalishi IV-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada atrof-muhitning inson salomatligiga ta'siri, turli kasalliklarning kelib chiqish sabablari hamda zararli gazlarning atmosferaga chiqarilishi va bu muammolarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlar batafsil bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Kislorod, uglerod, atmosfera, tibbiyot, gidrologiya, iqlimshunoslik, ekologiya, suv, tuproq, component, yuqori nafas yo'llari kasalligi, allergik kasalliklar, kam konlik, asab kasalliklari, ichki buxoq, gepatit.

ВЛИЯНИЕ ЗАГРЯЗНЕНИЯ АТМОСФЕРЫ НА ЗДОРОВЬЕ ЧЕЛОВЕКА

Абстрактный: В данной статье подробно описаны сведения о влиянии окружающей среды на здоровье человека, причинах различных заболеваний, выбросах вредных газов в атмосферу и мерах по предотвращению этих проблем.

Ключевые слова: Кислород, углерод, атмосфера, медицина, гидрология, климатология, экология, вода, почва, компонент, заболевания верхних дыхательных путей, аллергические заболевания, дефицит, нервные заболевания, туберкулез внутренних органов, гепатит.

IMPACT OF ATMOSPHERIC POLLUTION ON HUMAN HEALTH

Abstract: This article describes in detail information about the impact of the environment on human health, the causes of various diseases, the release of harmful gases into the atmosphere, and measures to prevent these problems.

Key words: *Oxygen, carbon, atmosphere, medicine, hydrology, climatology, ecology, water, soil, component, upper respiratory tract disease, allergic diseases, deficiency, nervous diseases, internal tuberculosis, hepatitis.*

Atmosfera yer shari bo'yicha tekis taqsimlangan. Yorug'likni, namlikni, issiqlikni, elektromagnit to'lqinlarini taqsimlaydigan va qayta taqsimlaydigan asosiy omil hisoblanadi. U kosmosdan keladigan zararli nurlar, meteoritlarni zararsizlantirib o'tkazadi. Atmosferaning bu xususiyatlari yerda hayotning barqarorligini ta'minlaydi. Sayyoramizning issiqlik balansi ham atmosferaga bog'liq. Atmosfera doimo biosfera, gidrosfera va litosfera bilan o'zaro aloqadadir. U tirik organizmlar uchun kerak bo'lgan kislorod, is gazi, azotning manbai hamdir. Ular biologik modda aylanishida faol ishtirok etadi. Atmosfera tufayli suv tabiatda aylanib yuradi. Bundan tashqari moddalarning geologik aylanishi, tog' jinslarining yemirilishi, harakati va boshqa jarayonlarda ham faol ishtirok etadi.

Atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalarning 50% dan ortig'ini uglerod oksidi, 14% ini oltinguturt angidridi va shunga o'xshash zararli moddalar, 8%ini - uglevodorodlar, 5% ini - qattiq moddalar, 4% ini - azot oksidi tashkil etadi.

Ma'lumki, inson salomatligi eng avvalo uning turmush tarziga, nasliga, tibbiyot xizmatining saviyasiga va yashash muhitining ekologik holatiga bog'liq sistemik muhitning ekologik holatini buzilishi uning turli kasalliklarga chalinishiga asosiy sababchi bo'lmoqda. Inson tabiatning ajralmas bir bo'lagi sifatida uning musaffolidan, go'zalligidan, tabiiy boyliklaridan bahramand bo'lib kelgan. Ayni kunga kelib toza havo, toza suv, tushunchasi nisbiy tushunchalarga aylandi.

Hozirgi fan va texnikaning rivoji insonni yashash muhitini o'zgarishiga, ekologik muvozanatning buzilishiga sabab bo'lmoqda. Buning natijasida ijtimoiy ekologik muhit o'zgarimoqda. Ijtimoiy ekologik muhitdagi kishining kayfiyatiga, ruxiga, salomatligiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri. Shu muhitning tozaligi, go'zalligidir. Kishilar yashaydigan, mehnat qiladigan, dam oladigan joylar gigienik jihatdan toza va ozoda, estetika talablariga javob beradigan bo'lishi kerak. Bu esa kishilarning kayfiyatini ko'taradi, ruhini tetik qiladi, muhit holati bilan bog'liq bo'lgan turli kasalliklarni kamayishiga olib keladi. Tadqiqodchilarning fikricha atrof muhit

holatining ifloslanishi hozirgi kunda inson salomatligini oʻrtacha 10% ga qisqartirgan. Ayniqsa sanoatlashgan, aholi zich yashaydigan yirik shaharlar hududi va ulardagi urbanizatsiya jarayonlari sanitar-gigienik holatlarni buzilishiga, natijada ayrim xavfli kasalliklarning kelib chiqishiga sabab boʻlmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi hududida ham tabiiy muhit buzilishining eng ogʻir holatlaridan biri kishilar oʻrtasida kasalliklarning koʻpayib borishidir. Keyingi yillarda respublikamizda yuqori nafas yoʻllari, kasalligi, allergik kasalliklar, kam qonlik, asab kasalliklari, ichki boʻqoq, gepatit kabi kasalliklarni aholi oʻrtasida koʻpayishi kuzatilmoqda

K.M.Petrovning fikriga koʻra murakkab ekologik holatlar darajasiga qarab:

1 Oʻtkir (tang va halokatli) ekologik holat;

2 Oʻtkir (tang) boʻlmagan ekologik holatga ajratiladi.

Oʻtkir ekologik holat vujudga kelgan regionlarda yoki lokal hududlarda oʻrniga kelmaydigan chuqur salbiy holatli oʻzgarishlar boʻlib, aholining ijtimoiy-ekologik holati ogʻirlashadi, kasalliklar koʻpayadi. Orolbuyidagi ekologik holat bunga yaqqol misol boʻla oladi.

Oʻtkir boʻlmagan ekologik holatlar janjalli tigʻiz va nisbatan qoniqarli vaziyatlarni yuzaga keltirib, ayrim lokal masshtabdagi oʻzgarishlardan iborat boʻladi.

Ekologik vaziyatlarni baholashda asosiy omil tabiiy muhit monitoringini tashkil etish va uni maʼlumotlaridan izchil foydalanishdan iboratdir. Tabiiy muhit monitoringi maʼlumotlaridan asoslangan holda tabiat komponentlarida (atmosfera havosi, suv, tuproq, bio komponentlar) gi ifloslantiruvchi moddalarning miqdoriy va meyoriy koʻrsatkichlarini aniqlash, oʻrganilayotgan hududga doir demografik, tibbiy, gigenik, statistik maʼlumotlarni toʻplash, kartalashtirish, turli darajadagi ekologik vaziyatlarga baho berish amalga oshiriladi.

Tabiiy muhit monitoring tizmalarini faoliyatlarini mukofatlashtirish, landshaft-ekologik holatga baho berish, uni muvozanatga keltirishni qulay uslublarini topish, ekologik vaziyatga kishilar salomatligi va ekologik holatni barqarorlashtirish nuqtai-nazardan yondoshishni talab etadi.

Ekologik vaziyatga baho berish, demak, tabiiy muhitga va uning inson taʼsirida oʻzgarishga ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy, maʼnaviy, ruhiy holatlardan kelib chiqadi,

chunki ekologik muvozanatni qanday vaziyatda ekanligi xam ana shu yoʻnalishlarga oʻz navbatida taʼsir koʻrsatadi. Ekologik muvozanatning barqarorligi tabiat komplekslari (landshaftlar) ga, uning resurs-ekologik va tabiiy potensialiga hamda ulardan inson xoʻjalik faoliyatida qay darajada va qanday foydalanishga bogʻliqdir. Shunnig uchun inson xoʻjalik faoliyatining har qanday yoʻnalishlari ekologik vaziyatni yaxshilashga qaratilgan boʻlishi kerak.

Atrof-muhitning tozaligi koʻp jihatdan inson salomatligini belgilab beradi. U tabiiy va sunʼiy omillar taʼsirida ifloslanadi. Atrof-muhitni ifloslovchi tabiiy omillarga shamol (havodagi chang miqdorining ortib ketishiga olib keladi), vulkan otilishi (atmosferaning vulkan tutunlari va kullari bilan ifloslanishi), sellar, qurgʻoqchilik, suv toshqinlari, zilzilalar, chigirtka bosishi, surilmalar va h.k. Masalan, qoʻrgʻoshin asab tizimi, jigar va buyrakni zaharlaydi. Simob koʻproq jigar va buyrakda toʻplanadi, modda almashinuvini buzadi, kadmiy bolalar nutqining buzilishiga olib keladi, mishyak oʻpka va teri rakini keltirib chiqaradi.

Qishloq xoʻjaligida qoʻllaniladigan pestitsidlardan har yili jahonda 1 mln kishi zaharlanadi, ulardan taxminan 15-20 ming kishi hayotdan koʻz yumadi. Avtomobillardan chiqadigan benzopiren moddasi, radioaktiv moddalar oʻpka rakini keltirib chiqaradi. Uglerod oksidining havodagi miqdori ortib ketishi organizmda kislorod yetishmovchiligiga sabab boʻladi hamda asab va yurak - qon tomir tizimlarini ishdan chiqaradi. Doimiy manbalardan atmosferaga 150 dan ortiq zararli moddalar chiqariladi. Hududiy jihatdan bu zararlarning 84%i sanoat korxonalarining asosiy qismi toʻplangan Toshkent, Qashqadaryo, Buxoro, Fargʻona va Navoiy viloyatlariga toʻgʻri keladi. Atmosferani ifloslantiruvchi asosiy manbalardan biri avtomobil transporti hisoblanadi. Avtotransportning atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalarning salmogʻi 53%ni, ayrim shaharlar (Toshkent, Buxoro Samarqand, Andijon) da 80% gacha yetadi. Keyingi paytda atmosferaga transport tomonidan chiqarilayotgan zararli chiqindilar 2,7 martaga kamaydi. Bu tabiatni muhofaza qilish tadbirlarining faol olib borilayotganligi, avtoparklarni texnik soz holatlarda saklanayotganligi, avtomobillarni ekologik nazoratdan oʻtkazish tizimining mukammallashtirilganligi kabi tadbirlarni amalga oshirish natijasidir. Atmosfera havosini

toza saqlashda sanoat ob'ektlarini geografik sharoitga qarab joylashtirish muhim ahamiyatga ega. Bunda sanoat ob'ektlari va yirik kommunal korxonalari alohida sanoat zonasida uy-joy massivlaridan tashqarida bo'lishi kerak. Shuningdek, shamolning yo'nalishi uy-joy zonasidan sanoat zonasi tomon esadigan bo'lishiga rioya qilish lozim. Aks holda sanoatdan chiqqan chang, qurum va gazlar uy-joy zonasi tomon shamol orqali kelib, havoni ifloslaydi. Uy-joy zonasi bilan sanoat zonasi orasida kengligi 100 m dan bir necha kilometr keladigan yashil o'simliklardan iborat sanitariya-himoya zonasi bo'lishi yaxshi natija beradi.

Atmosfera havosining ifloslanganlik darajasi va uni O'zbekiston respublikasi hududlari bo'yicha o'ziga xosligi bu sohada aniq tadbirlarni ishlab chiqishni talab etadi. Ana shunga ko'ra havoni muhofaza qilish borasidagi aniq yo'nalishlar quyidagicha bo'lishi kerak: havoning ifloslanishi yo'l qo'yiladigan darajadan oshib ketgan shahar va aholi punktlarida me'yoriy darajalarga tushirish; tezlik bilan respublikaning barcha shaharlarida, aholi punktlarida va sanoat markazlarida havo sifatini sanitariya me'yorlari darajasida yaxshilash; havoni muhofaza qilishda iqtisodiy dasturlardan foydalanishni kengaytirish.

Адабиётлар рўйхати

1. Глушкова В.Г., Макара С.В. «Экономика природопользования» учебное-пособие М., Гардораки 2005.
2. Холина В.И. «Основы экономики природопользования» Питер 2005.
3. Галыцин А.Н. «Основы промышленной экологии» Академия 2004.
4. Мирзоева И.Э. Табиатни муҳофаза қилишнинг маданий ва эстетик аҳамияти «Ученый XXI века» международный научный журнал. № 1-1 (26), январь 2017 г. Россия. 41-43 стр
5. Mirzoyeva I.E., Muratova G.S. Inson xo'jalik faoliyati ta'sirida geografik qobiqda issiqlik balansining o'zgarishi. "Ekologiya va ekologik ta'lim muammolari" ilmiy-amaliy konferensiya. ISSN: 2181-3464/ 28.10.2022